

## ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “1942-YIL.KUZ” SHE’RI BADIY-G’OYAVIY TAHLILI

**Nurmaxmatova Furuza Rasulovna**

O‘zbekiston davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

[feruzanurmaxmatova@gmail.com](mailto:feruzanurmaxmatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Aleksandr Arkadevich faynberg mahoratli shoir, ssenariynavis, tarjimon bo‘lib, o‘zining samimiy lirizmi, teran hayotiy falsafasi bilan o‘zbek adabiyotiga faqat o‘zigagina tegishli yo‘l yarata olgan adabiyotning taniqli arbobi sanaladi. Uning bolaligi insoniyat tarixidagi eng mashaqqatli davrlardan bo‘lmish Ikkinchi Jahon urushi yillariga to‘g‘ri kelgan. Shu sababli Faynberg hayoti va ijodi urush va urushdan keying yillar bilan o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, aynan mana shu tarixiy sharoit shoir poetik tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan omillardan biri hisoblanadi. Bolalik yillariga to‘g‘ri kelgan urush ijodkorni hali voyaga yetib ulgurmasidan ko‘p ayamchli, vayronkor voqealarga guvoh bo‘lishiga olib keladi. Urush front chizig‘ida bo‘lmasa ham, orqa fondagi ochlik, sovuq, taqchillik va ruhiy ezilishlar va iztirob u ham u kabi bolalar qalbida o‘chmas iz qoldiradi. Shoir ulg‘ayib she‘riyatga mehr qo‘yadi va o‘z ijodiy faoliyatini boshlagan chog‘larida Urush yillarida sodir bo‘lgan, boshidan kechgan voqealarni qog‘ozga poetik uslubda tushuradi. Uning ko‘pchilik asarlarida bolalik yillari, urush yillarining og‘ir kunlari, oddiy hayot tafsilotlari orqali juda katta tarixiy haqiqatlar ochiqdan ochiq qilinadi. Faynberg uchun urush shunchaki tarixiy faktlar-u yillar jamlanmasi emas, insoniyat qalbiga asrlar davomida og‘riq, sog‘inch, afsus berib kelayotgan og‘riqli xotiralar. Shoir ijodining muhim jihatlaridan biri- insoniylik, mehr, Vatan, urush va tinchlik, bolalik, xotira va vaqt manzaralarining uyg‘unligidan hosil bo‘lgan ajoyib she‘riy sahnalari. O‘quvchi bu manzaralarni ko‘rmasa ham, tasvir orqali o‘sha sahnada paydo bo‘lganday, ta‘riflangan voqeaga guvoh bo‘lganday ta‘sirlanadi. U dunyoga ko‘pincha bola

nigohi bilan qaraydi: hayrat, qoʻrquv, tushunarsiz savollar, sodda, baʼzan sababsiz quvonch va ogʻriqlar orqali. Shuning uchun uning asarlarida balandparvoz gaplar aytilmaydi. Faynberg Vatan mavzusi ham muhim ahamiyatga ega. Shoir uchun inson xotirasida saqlanib qolgan manzaralar vatanning eng jonligi ifodasidir. Shu jihatdan ham uning urush yollariga bagʻishlab yozilgan sheʼrlarida ham vatan mavzusi yashirin, biroq chuqur maʼnoda mavjud boʻlgan. Shoirning deyarli barcha urush mavzusida bitgan asarlari, xususan “1942-yil. Kuz” sheʼri ham aynan shunday poetik xususiyatlarni oʻzida mujassamlashtirgan asar sifatida namoyon boʻladi. Mazkur qaolada Aleksandr Faynbergning “1942-yil. Kuz” sheʼri tahlili koʻrib chiqiladi.

**Abstract:** Alexander Arkadyevich Feinberg is a talented poet, screenwriter, translator, and a prominent figure in literature who, with his sincere lyricism and deep philosophy of life, created a unique path for Uzbek literature. His childhood coincided with the years of World War II, one of the most difficult periods in human history. Therefore, Feinberg's life and work are closely intertwined with the war and the post-war years, and it is precisely this historical circumstance that is considered one of the factors that played an important role in the formation of the poet's poetic thinking. The war, which coincided with his childhood years, led the artist to witness many tragic and devastating events before he reached adulthood. Even if the war was not on the front lines, the hunger, cold, scarcity, and mental oppression and suffering in the background left an indelible mark on the hearts of children like him. The poet Growing up, he fell in love with poetry and, when he began his creative career, he poetically captured the events that happened and experienced during the war years on paper. In most of his works, great historical truths are revealed through childhood, the difficult days of the war years, and the details of ordinary life. For Feinberg, war is not just a collection of historical facts - it is a collection of years, but painful memories that have been causing pain, longing, and regret in the hearts of humanity for centuries. One of the important aspects of the poet's work is his wonderful poetic scenes created from the harmony of humanity, love, homeland, war and peace, childhood, memory, and time. Even if the reader does not see these scenes, he is affected by the image as if he were on that scene, as if he were witnessing the described event. He often looks at

the world through the eyes of a child: through surprise, fear, incomprehensible questions, simple, sometimes causeless joy and pain. Therefore, his works do not contain lofty statements. The theme of the Motherland is also of great importance. For the poet, the landscapes preserved in human memory are the most vivid expression of the homeland. In this regard, the theme of the homeland is also present in his poems dedicated to the paths of war, albeit in a hidden, but deep sense. Almost all of the poet's works on the theme of war, in particular the poem "1942. Autumn", are manifested as works that embody precisely such poetic features. This article will consider the analysis of Alexander Feinberg's poem "1942. Autumn".

**Аннотация:** Александр Аркадьевич Файнберг — талантливый поэт, сценарист, переводчик и видная фигура в литературе, который своим искренним лиризмом и глубокой философией жизни проложил уникальный путь для узбекской литературы. Его детство совпало с годами Второй мировой войны, одним из самых тяжелых периодов в истории человечества. Поэтому жизнь и творчество Файнберга тесно переплетены с войной и послевоенными годами, и именно это историческое обстоятельство считается одним из факторов, сыгравших важную роль в формировании поэтического мышления поэта. Война, совпавшая с его детством, заставила художника стать свидетелем многих трагических и разрушительных событий еще до достижения совершеннолетия. Даже если война не велась на фронте, голод, холод, нехватка продовольствия, душевное гнет и страдания на заднем плане оставили неизгладимый след в сердцах таких детей, как он. Поэт, взрослея, полюбил поэзию и, начав свою творческую карьеру, поэтически запечатлел на бумаге события, произошедшие и пережитые в годы войны. В большинстве своих произведений он раскрывает великие исторические истины через призму детства, трудных дней военных лет и деталей обыденной жизни. Для Файнберга война — это не просто набор исторических фактов, это набор лет, но болезненных воспоминаний, которые веками причиняли боль, тоску и сожаление в сердцах человечества. Одним из важных аспектов творчества поэта являются его чудесные поэтические сцены, созданные из гармонии человечества, любви, родины, войны и мира, детства, памяти

и времени. Даже если читатель не видит этих сцен, он ощущает образ так, словно находится на месте событий, словно является их свидетелем. Он часто смотрит на мир глазами ребенка: через удивление, страх, непонятные вопросы, простую, порой беспричинную радость и боль. Поэтому в его произведениях нет возвышенных высказываний. Для Файнберга также очень важна тема Родины. Для поэта пейзажи, сохранившиеся в человеческой памяти, являются наиболее ярким выражением родины. В этом отношении тема родины присутствует и в его стихах, посвященных путям войны, хотя и в скрытом, но глубоком смысле. Практически все произведения поэта на тему войны, в частности стихотворение «Осень 1942 года», воплощают именно такие поэтические черты. В данной статье будет рассмотрен анализ стихотворения Александра Файнберга «Осень 1942 года».

**Kalit sòzlar:** urush yillari, 1942-yil kuz, bolalik хотиралари, Ikkinchi jahon urushi, ochlik va taqchillik, yetimlik fojiasi, insoniylik va mehr, vatan tuygʻusi, хотира poetikasi, badiiy tasvir vositalari, lirizm, umid va sabr, orqa front hayoti, bolalik nigohi.

**Keywords:** war years, autumn 1942, childhood memories, World War II, hunger and scarcity, the tragedy of orphanhood, humanity and love, patriotism, poetics of memory, means of artistic expression, lyricism, hope and patience, home front life, childhood perspective.

**Ключевые слова:** военные годы, осень 1942 года, детские воспоминания, Вторая мировая война, голод и нехватка продовольствия, трагедия сиротства, гуманизм и любовь, патриотизм, поэтика памяти, средства художественного выражения, лиризм, надежда и терпение, жизнь в тылу, детская перспектива.

Ikkinchi Jahon urushi insoniyat tarixida roʻy bergan eng musibatli davrdir. Bu davr tarixda nafaqat frontdagi ayovsiz jangler, balki orqa fondagi ochlik sovuq va ruhiy iztiroblar haqidagi qaygʻuli хотиралар bilan yoʻgʻirilgan fojeaviy hodisadir. Aleksandr Arkadevich Faynberg ham mana shu yillar murakkabliklarini, talofatlarini tasvirlagan koʻplab asarlar yozgan boʻlib, ular ogʻir bolalik yillari bilan uygʻun holda ifodalanadi. Shoir

urushni shunchaki tarixiy hodisa emas, balki oddioy inson, ayniqsa bola yuragida, ruhida, ongida o'chmas iz qoldiradigan izlari orqali ochib beradi.» 1942-yil. Kuz” she’ri ham ana shunday ruhiy og’riq va xotira poetikasining yorqin namunalari dandir. Quyida she’r bilan tanishamiz:

1942-YIL. KUZ

Tomorqada jiqqa ho‘l

Tuzikning jun ko‘ylagi.

Tomog‘imiz och, nuqul

nonushtaga – lavlagi.

Tomchi, tomchi, chertar do‘l

derazaning oynagin.

Lang ochaman, chizaman

nuqta, nuqta, vergulcha.

Mitti-mitti bolalar

to‘p-to‘p chizar odamcha.

Bizning bog‘chada tongdan

yana yonmadi pechka.

Harbiylar to‘la ko‘cha.

Yomg‘ir, yomg‘ir, chak-chak-chak.

Vitka she’r o‘qir – “Yomg‘ir”.

Dadasi zo‘r musavvir...

Nuqta, nuqta, vergulcha,

minus – yig‘lar yetimcha.

Kalish oberar onam

sal ulg‘ayganda menam.

Yomg‘ir, yomg‘ir, chak-chak-chak.

Yig‘laydi uy oynagi.

Daryo-daryo sel – ko‘cha.

Tushlikda ham – lavlagi...

She‘rning dastlabki misraqlaridanoq,sovuq va qayg‘uli manzara yaratiladi; ”Tomorqada jiqqa ho‘l Tuzikning jun ko‘ylagi.» Bu oddiy detal,ya‘ni jun ko‘ylakning namligi, butun she‘r voqeasi yuz berayotgan muhitning sovuqligini va namligini ko‘rsatib turadi.Shoir hodisaga kichik-kichik,ko‘z ilg‘ashi qiyin detallarni ta‘riflash bilan kirib boradi.Bu bolalik nigohining tabiiyligi dandir.Hali hech nimaga aqli yetmaydigan bola uchun urush bu avvalambor-sovuq,ochlik,sovuq,yomg‘ir va pechkaning yonib turmasligi: ”Tomog‘imiz och,nuqul nonushtaga-lavlagi. ”Bu satrlardan urush yillarida insonlar qanday taqchillik,ocharchilikka duch kelganlarini anglaymiz. Non o‘rniga lavlagi yeb kun ko‘rish o‘sha urushning suronli yillariga tegishli eng achchiq haqiqatdi.Lavlagi obrazi she‘r davomida bir necha marotaba takrorlanib ochlikni ifodalovchi timsol sifatida namoyon bo‘ladi.Tushlikka ham lavlagi-demak,ochlik kundalik hayotning doimiy iztirobi,qiynog‘I bo‘lgan.

She‘r bo‘ylab “Yomg‘ir,yomg‘ir,chak-chak-chak” takror-takror eshtilib turadi. Bu faqat tabiat hodisasini ifodasi bo‘libgina qolmay,asarga ruhiy fon berib turadi. Deraza oynasiga tomayotgan yomg‘ir go‘yo uy ichida hukron qayg‘uni ham takrorlaydi: ”Yig‘laydi uy oynagi. ”Bu yerda jonlantirish san‘atini qo‘llash orqali shoir tabiatni ham o‘z darddoshiga aylantiradi.Oyna yig‘laydi- bundan kelib chiqadiki,butun dunyo qayg‘u va iztirob botqog‘iga botgan.Yomg‘irning tinmasligi urushning uzoq cho‘zilib ketgan azobini eslatib turuvchi ifodadir.

She'rdagi yana takror-takror aytilgan "nuqta,nuqta,vergulcha" iborasi bolalar o'ynaydigan oddiy chimachilik o'yini.Bu orqali bolalar mitti odamchalar chizadilar.ammo bu satr orasida "minus yig'lar yetimcha" degan jumla ham qo'llanilgan bo'lib,u urush sabab bo'lgan yo'qotishlar,yarimta,kemtik qilib ketgan jajjigina qalblar timsolidir.Bu birgina sodda so'z butun davrning fojeasini ochib beradi.

Keyingi qismlarda "Harbiylar to'lgan ko'cha" satriga ko'zimiz tushadi.Bu misralar orqali shoir fron ortidagi manzarani ko'rsatadi.Demak,urush insonlar hayotining ajralmas qismi bo'lgan.Bola uchun bu oddiy voqeadek tuyuladi,albatta,biroq hayotni anglagan katta odam uchun bu daxshatli fojeadan darak beradigan sahna.

"1942-yil.Kuz" she'rida jang maydonida kechayotgan jang emas,bolalikning yo'qotilgan quvonchi tasvirlanadi.Ochlik,sovuq,tanqislik urush haqidagi statistik ma'lumotlar emas,urush insonlar,yosh go'daklar qalbida qoldirga bitmas jarohat belgilari.Shoir o'z asarida bolalik xotiralarini badiiylashtirish vositasida urush sababli yuz berga eng yirik fojea-insoniylik va beg'uborlikka yetkazilgan zarbani yoritib beradi.

She'r yakunida yana "Tushlikka ham- lavlagi..." misrasi takrorlanadi.Uch nuqta esa davom etayotgan azob,tugamagan qayg'uni ifodalaydi.Ammo shu og'ir vaziyatda ham bolakay she'rlari bilan odamcha chizishni davom etaveradi.Bu hayot vhaq qanday fojeadan ham kuchliroq ekanini bildiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki Aleksandr Arkadevich Faynberning ushbu she'rini o'qib uning nechog'lik mohir so'z ustasi ekaniga guvoh bo'lamiz.She'r tili sodda,bollarcha,lekin ma'nosi chuqur.She'rni mutolaa qilayotgan kitobxon mana shu oddiy,bolalarcha tildan aytilayotgan voqea uni ko'z oldida tirilib,insonlar his qilgan qayg'u endi uning ham qalbini kemirayotganini his qilishi,bexos ko'ziga yosh olishi tabiiy.Mazkur she'r bolalik nigohi orqali insoniyat xotirasidan hech o'chmaydigan saboq qoldirgan urush va u og'irlagan baxt,beg'uborlik haqida kuylaydi.Kitobxon undan katta hayotiy darslarni ,ya'ni tinchlikni qadrlash,uni saqlash,o'tayotgan tinch,dorulomon kunlarga shukronalik his qilish kabilarni o'rganadilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alexander. F “Qoramaga qasida”. Tashkent- 2021
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
3. <https://arm.samdhti.uz/library/download/692>
4. <https://yuz.uz/uz/news/aleksandr-faynbergning-yorqin-xotirasi>
5. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021.
6. Karimova N. Adabiyot va tuyg‘u estetiyesi. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020.